



KO'P MADANIYATLI DUNYODA PEDAGOGIK TA'LIM: TARIX VA HOZIRGI ZAMON

**XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

PEDAGOGICAL EDUCATION IN A MULTICULTURAL WORLD: HISTORY AND MODERNITY

**PROCEEDINGS
OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE**



SAMARQAND - 2025

International Scientific and Practical Conference
PEDAGOGICAL EDUCATION IN A MULTICULTURAL WORLD: HISTORY AND
MODERNITY

June 4, 2025, Samarkand, Uzbekistan
Conference Proceedings

JA Inkwell Publishing House
Arizona, USA

**“KO‘P MADANIYATLI DUNYODA PEDAGOGIK TA‘LIM: TARIX VA HOZIRGI ZAMON”
MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI
2025-yil 4-iyun**

**CONFERENCE PROCEEDINGS
PEDAGOGICAL EDUCATION IN A MULTICULTURAL WORLD: HISTORY AND
MODERNITY
June 4, 2025**

**СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ
МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
“ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В ПОЛИКУЛЬТУРНОМ МИРЕ: ИСТОРИЯ И
СОВРЕМЕННОСТЬ”
4 июня 2025 г.**

**ПРИВЕТСТВЕННОЕ СЛОВО
РЕКТОРА САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ИНСТИТУТА ИНОСТРАННЫХ
ЯЗЫКОВ**

на открытии Международного форума по педагогическому образованию
**«Современное педагогическое образование на международном, национальном и
региональном уровнях»**

4 июня 2025 года, Самарканд

Уважаемые участники и гости Международного форума!

Дорогие коллеги, ученые, преподаватели, студенты!

От имени коллектива Самаркандского государственного института иностранных языков и от себя лично искренне приветствую вас на Международном форуме, посвящённом вопросам современного педагогического образования! Этот форум проводится при активной поддержке Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан и в партнёрстве с ведущими вузами, среди которых – Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова, Шахрисабзский государственный педагогический институт, а также один из авторитетнейших вузов Российской Федерации – Казанский (Приволжский) федеральный университет. Такое сотрудничество придаёт нашему мероприятию особую значимость, подчёркивает его международный масштаб и подтверждает стремление академического сообщества к объединению усилий в развитии педагогического образования.

Сегодняшняя встреча является важным событием не только для нашего института, но и для всей образовательной системы Узбекистана. Форум под девизом «Современное педагогическое образование на международном, национальном и региональном уровнях» отражает актуальные вызовы времени: необходимость обновления содержания образования, внедрение цифровых технологий, повышение качества подготовки педагогических кадров, развитие глобальных компетенций и межкультурного взаимодействия.

Мы живем в эпоху стремительных изменений и глобализации, когда педагогу необходимо не только передавать знания, но и формировать у студентов навыки критического мышления, инновационного подхода, толерантности и лидерства. Именно к такому формату педагогического образования мы стремимся в нашем институте – готовя преподавателей нового поколения, способных стать агентами позитивных перемен.

Особую роль в этом процессе играют международное сотрудничество и академическая мобильность. Мы гордимся тем, что Самарканд становится площадкой для открытого диалога, обмена опытом и совместных научных инициатив. Участие представителей вузов из Европы, Азии, стран СНГ и Ближнего Востока подтверждает высокий интерес к теме форума и желание сотрудничать в сфере педагогики.

Сегодня нас ожидают насыщенные пленарные заседания, тематические секции, научные доклады, мастер-классы и презентации проектов, которые, несомненно, обогатят каждого участника новыми знаниями, идеями и профессиональными связями.

Хочу выразить искреннюю благодарность Министерству высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан, нашим соорганизаторам и международным партнёрам за всестороннюю поддержку в подготовке и проведении этого форума. Благодаря нашим совместным усилиям создаются условия для устойчивого развития науки и просвещения.

Дорогие друзья! Желаю всем участникам продуктивной работы, ярких научных выступлений, плодотворного общения и вдохновения! Пусть сегодняшний форум станет стартовой площадкой для новых международных проектов, образовательных инициатив и дружеских академических связей.

Добро пожаловать в Самарканд – древний и вечно молодой город, где встречаются прошлое и будущее, наука и культура, педагогика и духовность! В этом аспекте Самарканд выступает не только географической точкой на карте, но и символом диалога цивилизаций, местом, где историческое наследие вдохновляет на научные открытия, где образовательные инициативы получают импульс к развитию, а культурное разнообразие становится основой для формирования толерантного и просвещённого общества.

Пусть атмосфера этого уникального города вдохновит вас на плодотворное сотрудничество, творческие идеи и укрепление профессионального единства!

С уважением и наилучшими пожеланиями,
Ректор Самаркандского государственного института иностранных языков
Холиков Баходир Аликулович

MULTICULTURAL EDUCATION: CHALLENGES AND PROSPECTS

KO'P MADANIYATLI TA'LIM: MUAMMO VA ISTIQBOLLAR

ПОЛИКУЛЬТУРНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

HARAKATLI O'YINLARNI TASHKIL ETISHNING TA'LIMiy VA TARBIYAViy AHAMIYATI

Normatov Xasan Isroil o'g'li
SamDChTI Mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushu maqolada tarbiyachilar va o'qituvchilar harakatli o'yinlarning tashkilotchisi va rahbarlari ekanligi. Harakatli o'yinlar bolalarni jismoniy jihatdan yaxshi o'nib-o'sishlariga, salomatliklari yaxshilanishiga, chiniqishlariga, organizmlarining va umumiy ish qobiliyatlarining yanada mustahkamlanishiga yordam berishligi haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: O'qituvchilar, harakatli o'yinlar, salomatlik, chiniqish, qobiliyat, bilim, bola, ta'lim, sharoit.

Kirish. Mahoratli pedagog dars jarayonini tashkil etishda, bolalarga harakat faoliyatining xilma-xil sharoitlarida erkin harakat qila olish imkonini beradigan zarur bilimlarni berish va ularda kerakli harakat malakalari hosil qilish lozim. Ularda turmush faoliyatiga yordam beradigan aqliy va irodaviy xislatlarni tarbiyalash zarur. Bundan tashqari, bolalarda turli o'yinlarga, jismoniy mashqlarga, shuningdek, kun tartibiga rioya qilishga qiziqish uyg'otishi, harakatli o'yinlarni mustaqil ravishda tashkil qilish va o'tkazish uchun zarur bilim va malakalar hosil qilish shart. Ta'lim-tarbiya jarayonida bunday vazifalarni amalga oshirish bilan bir qatorda o'quvchilarda axloq normalarining tarkib topishiga, shuningdek, estetik va mehnat tarbiyasi vazifalarining ham bajarilishiga erishish lozim. Harakatli o'yinlarni o'tkazishda tarbiyachi o'qituvchining tashkilotchilik va tarbiyaviy roli juda mas'uliyatlidir. Bu haqida talabalarga ya'ni bo'lajak o'qituvchilarga bu haqida tushuncha va metodik tavsiyalar berish maqsadga muvofiqdir.

O'yinni o'rganish jarayonini shunday uyushtirish kerakki, unda bolalar o'rtoqlarcha munosabatda bo'lishni, jamoativchilik, vatanparvarlik, ijtimoiy foydali mehnatga to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rganishi kerakligini ta'kidlash lozim. Shunda ustoz bu jaronyaga alohida e'tibor beradi. O'yinni to'g'ri tanlash va bolalar bilan to'g'ri o'tkazish juda muhim ahamiyatga ega. Ammo o'yin turini tanlashning o'zi hamma vaqt ham tarbiyaviy vazifani bajaravermaydi. Bunday harakatli o'yinlar tashkil qilinishi va o'tkazilishining tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi juda muhim.

O'yin rahbari bolalar jamoasini yaxshi bilgan, har bir o'tkaziladigan o'yinning mazmun va qonunlari bilan mufassal tanishgan, o'qitish jarayonida esa yuksak pedagogik mahoratni namoyish qila olgan taqdiridagina har bir o'yinni ta'lim - tarbiya nuqtai nazaridan to'g'ri yo'lga qo'yishi mumkin. O'qituvchi o'yinlarni o'rgatish jarayonida sport pedagogikasining didaktik prinsiplaridan foydalanishi va ularning doimo amalga oshirilishiga erishishi lozim. O'qituvchi o'quvchilarga har bir o'yinni o'rgatish vaqtida uning mazmuni, vazifalari va qoidalarini tushuntirib beradi. O'yinga ongli munosabatda bo'lish, uni turli o'rganish, o'z xatolari va muvaffaqiyatlarini to'g'ri tushunish harakatlarini o'rtoqlarining harakatlariga taqqoslab tahlil qilish imkonini beradi. O'qituvchi o'rgatadigan va o'quvchilar tushunib qiladigan harakatlar bolalarda tashkilotchilik ko'nikmalarini tarbiyalashga yordam berishi kerak.

O'yinni o'tkazish uchun o'quvchilardan hakamlar va hakamlarning yordamchilarini tayinlashi lozim. O'qituvchi bolalar o'yinini qiyinchiliklarni yengish bilan bog'lagan holda, uni asta-sekin murakkablashtirib borishi lozim. Bu bolalarni mehnatsevarlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi. O'qituvchi o'yinni o'tkazishga kirishishdan oldin o'yinning aniq vazifalarini belgilab chiqadi. Bu vazifalar bolalarning yoshiga yarasha, ya'ni ularni bajarishga qurbi yetadigan darajada bo'lishi kerak. O'yinni tashkil qilish va o'tkazishda imkoni boricha o'quvchilarning tashabbuskor bo'lishi, faol ishtirok etishi uchun ularni rag'batlantirish juda muhim. Bolalarga ijodiy faollik ko'rsatib o'yin o'ynashi natijasida ularda, tashkilotchilik qobiliyati shakllanib boradi. Bir maqsad yo'lida o'rtogiga yordam berish, mustaqil ravishda yoki o'rtoqlari bilan birga biror masala yuzasidan qaror qabul qilishi ijodiy tashabbuskorlik namunasi hisoblanadi. Agar bolalar o'yinni ilgariroq o'zlashtirib olgan bo'lsalar, o'yin paytida ularning faolligi yana ham ortishi mumkin.

O'yin paytida bolalarning faol bo'lishi o'qituvchining o'yinni o'tkazishga qanchalik tayyorlanganiga bogliq bo'ladi.

O'qituvchi o'yinlarni o'rganishda dastlab osonlaridan boshlab, asta - sekin qiyinlariga o'tishi lozim. Oddiy va guruhlariga bo'linmasdan o'ynaladigan o'yinlar oddiy o'yinlar hisoblanadi. Bunday o'yinlarni o'ynash oson bo'ladi. Guruhlarga teng bo'linib o'ynaladigan o'yinlar sal murakkab va juda murakkab o'yinlarga kiradi. Bunday

o'yinlarning qoidalaribashqa o'yinlarning qoidalariga qaraganda qiyinroq bo'ladi. Shu boisdan ham o'qituvchi hamma vaqt yengil o'yinlardan murakkab o'yinlarga, tanish o'yinlardan notanish o'yinlarga o'tishni ko'zda tutishi kerak. Shunda bolalar o'yinga qiziqadilar. Yangi o'rganiladigan o'yinlar turiga ko'ra tanish o'yinlarga o'xshash bo'lishi kerak. Ammo bunday o'yinlarga hali bolalarga noma'lum bo'lgan qoidalar va ba'zi bir harakatlar kiradi. Shunday qilib, o'yinlar asta-sekin murakkablasha boradi. Bu esa bolalarda yangi harakat ko'nikmalarini hosil qilishga va ilgari o'rganilgan texnika elementlarini takomillashtirishga yordam beradi. Harakat ko'nikmalarining, shuningdek, o'yindailgari orttirilgan bilimlarning puxta uzlashtirilishiga erishish uchun materiallarni doimo takrorlab va mustahkamlab borish zarur. Ammo bundan hadeb bir xil o'yinlarni takrorlayverish kerak, degan ma'no chiqmaydi. O'qituvchi bolalar o'yinini doimo tekshirib borishi lozim.

Shunda o'yindagi kamchiliklar va xatolarni aniqlash hamda ularni o'z vaqtida to'g'rilash mumkin bo'ladi. Bolalarning o'yinlarini puxta uzlashtirishlari ularga bu o'yinlardan kuni zaytirilgan gruppalarda, lagerlarda va boshqa joylarda mustakil ravishda foydalanish imkonini beradi.

Xulosa. Harakatli o'yinlar o'quvchilardan chaqqonlikni, tashkilotchilikni va birdamlikni hamkorlikni o'rgatadi. Ma'lumki, xar bir o'yinning o'ziga xos xususiyatlari va qiyinchiliklari bo'ladi. To'siq yoki qiyinchiliklarni yengish bilan bog'liq bo'lmagan, ya'ni ancha - muncha kuch - quvvat sarflashni talab qilmaydigan o'yinlar bolalarda qiziqish uygotmaydi. Juda oson yoki, aksincha, haddan tashqari og'ir o'yinlar ham qiziqarli o'tmaydi. Shuning uchun o'qituvchi vaziyatga qarab o'quvchilarni darsga jalb qilib qiziqarli tashkil etishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Usmonxo'jayev T.S., Xo'jayev F. Harakatli o'yinlar. T., 1992.
2. Usmonxo'jayev T.S., Meliyev X. Milliy harakatli o'yinlar. 2000.
3. Xo'jayev F., Rahimqulov K.D., Nigmanov B.B. Sport va harakatli o'yinlar o'qitish metodikasi. 2008.
4. Qosimov A.Sh. Harakatli o'yinlar. 1983.
5. Normurodov A.N. O'zbek milliy o'yinlari. T., 1999.
6. Usmonxo'jayev T.S., Xo'jayev F. 1001 o'yin. T., 1990